

A BRIEF ANALYSIS OF DUBAI'S CREATIVE ECONOMY

Daminova Madinaxon Bahromjon qizi

A PhD researcher of the Department of "Econometrics",

Tashkent State University of Economics

Email: daminovamadina1992@gmail.com

Phone: +998915170309

Abstract

This thesis analyzes the development strategy of the creative economy in Dubai and its contribution to economic growth. In particular, it examines the targets set under the "Dubai Creative Economy Strategy," including increasing the share of creative industries in GDP, expanding the number of creative firms, and boosting employment. The findings indicate that design and creative services, as well as audiovisual and interactive media, are leading sectors. Furthermore, the study highlights the importance of KPI-based policy management, institutional support, and cooperation with international organizations in fostering the creative economy.

Keywords: creative economy, Dubai experience, GDP, creative industries, employment, KPI, design services, media sector

DUBAY KREATIV IQTISODIYOTI QISQACHA TAHLILI

Daminova Madinaxon Bahromjon qizi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Ekonometrika" kafedrasida tayanch doktoranti

Elektron manzil: daminovamadina1992@gmail.com

Telefon: +998915170309

Annotatsiya

Mazkur tezisda Dubay amaliyoti misolida kreativ iqtisodiyotning rivojlanish strategiyasi va uning iqtisodiyotga qo'shayotgan hissassi tahlil qilinadi. Xususan, "Dubay Creative Economy Strategy" doirasida kreativ sohalarning YaIMdagi ulushini oshirish,

kreativ kompaniyalar va bandlik darajasini kengaytirish bo'yicha belgilangan maqsadlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dizayn va kreativ xizmatlar hamda audio-vizual media sohalari yetakchi o'rin tutadi. Shuningdek, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishda KPI tizimi, institutsional muhit va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: kreativ iqtisodiyot, Dubay tajribasi, YaIM, kreativ industriyalar, bandlik, KPI, dizayn xizmatlari, media sektori


So'nggi yillarda global iqtisodiyotda kreativ industriyalar muhim o'sish drayverlaridan biriga aylanmoqda. Innovatsiyalar, intellektual mulk va inson kapitaliga asoslangan ushbu soha iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Dubai tajribasi kreativ iqtisodiyotni strategik rivojlantirishning samarali modeli sifatida e'tirof etilmoqda.

“Dubay Creative Economy Strategy” doirasida kreativ industriyalarning iqtisodiyotga hissasini aniq ko'rsatkichlar orqali oshirish vazifasi qo'yilgan: 2020-yildagi 2,6% ulushdan 2025-yilga borib 5% gacha ko'tarish maqsadi e'lon qilingan. Shuningdek, strategiya 5 yil ichida kreativ kompaniyalar sonini 8 300 tadan 15 000 tagacha, kreatorlar (ijodkorlar) sonini esa 70 000 tadan 140 000 tagacha oshirish vazifalarini belgilaydi.¹

Mazkur tadqiqotning maqsadi Dubay tajribasi asosida kreativ iqtisodiyotning rivojlanish mexanizmlarini tahlil qilish hamda undan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat.² Quyidagi 1-rasmda Dubay kreativ iqtisodiy sohalarning, YaIM dagi ulushi ko'rsatilgan.


¹ UAE Government portal (u.ae). Dubai Creative Economy Strategy bo'yicha rasmiy ma'lumot.; Government of Dubai Media Office. Dubai Creative Economy Strategy bo'yicha press-relizlar.

² World Intellectual Property Organization (WIPO). Copyright-based industries iqtisodiy hissasini baholash bo'yicha qo'llanma va creative economy/IP materiallari.



1-rasm. Kreativ iqtisodiy sohalarning ulushi, mlrd, BAA dinori, 2022-yil³

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, Dubay YAIMda kreativ iqtisodiyotning ulushi 2022-yilda 13,02 mlrd. BAA dinorini tashkil etdi. Demak kreativ iqtisodiy sohalarning ichida peshqadami Dizayn va kreativ xizmatlar sohasi tashkil etgan va u 6,51 mlrd. BAA dinoriga teng. Audio-vizual va interaktiv media esa 4,05 mlrd. BAA dinorga teng bo‘ldi. Kreativ sohalarning Ichida eng past ulush madaniy va tabiiy meros tashkil etdi va u 0,06 mlrd. BAA dinoriga teng.⁴



2-rasm. Kreativ sohalarda band aholining ulushi, 2022-yil⁵

³ Creative Dubai 2024 Impact Report ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

⁴ Creative Dubai 2024 Impact Report

⁵ Creative Dubai 2024 Impact Report ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Bundan tashqari kreativ sohada band aholining ulushi ham sezilarli darajada o‘sgan. WIPO hisobiga ko‘ra Dubay 2-22-yil ma’lumotlariga ko‘ra, 118,673 ishchi to‘g‘ridan to‘g‘ri va 57,054 nafar ishchi esa bilvosita kreativ sohada band. Quyidagi 2-rasmda kreativ sohada band aholini yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimotini ko‘rib chiqamiz. Aytib o‘tishimiz kerakki, bu sohada band ishchilar soni 2019-yilda 73240 nafarni tashkil etgan. Bu esa sohada band aholining soni qariyb 62% oshgan. Ko‘rinib turibdiki, 56850 nafar mutaxassis Dizayn va kreativ xizmatlar sohasida faoliyat olib bormoqda. Undan keying o‘rinda esa audio-vizual va interaktiv media 32425 nafar hodim va kitob va nashriyot sohasida esa 18021 nafarni tashkil etmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, Dubai tajribasi kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishda kompleks va aniq yo‘naltirilgan yondashuvni namoyon etadi. Xususan, “Dubai Creative Economy Strategy” doirasida belgilangan aniq KPI ko‘rsatkichlari (YaIMdagi ulush, kompaniyalar soni, bandlik darajasi) orqali soha rivoji samarali boshqarilmoqda.

Tahlil natijalari kreativ iqtisodiyotning Dubay YaIMidagi ulushi sezilarli darajada oshib borayotganini, ayniqsa dizayn va kreativ xizmatlar hamda audio-vizual media yetakchi tarmoqlar sifatida shakllanganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ushbu sohada band aholining keskin ortishi kreativ industriyalarning mehnat bozoridagi ahamiyatini yanada mustahkamlamoqda.

Umuman olganda, mazkur tajriba kreativ iqtisodiyotni milliy iqtisodiyotning muhim drayveriga aylantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuvni moslashtirilgan holda O‘zbekiston sharoitida qo‘llash iqtisodiy diversifikatsiya, yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Intellectual Property Organization. (n.d.). Guide on surveying the economic contribution of the copyright-based industries. WIPO.
2. UAE Government Portal. (n.d.). Dubai Creative Economy Strategy. UAE Government.
3. Government of Dubai Media Office. (n.d.). Dubai Creative Economy Strategy: Press releases.